

PEDAGOGIK LIDERLIK: O'QITUVCHINING SAMARALI TA'LIM JARAYONIDAGI ROLI

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'limga 'nalishi 2-kurs talabasi Hakimova Gulyora Adaxamjon qizi

Ilmiy rahbari: Falsafa fanlari doktori, professor A.A.Egamberdiyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik liderlik tushunchasini, o'qituvchining samarali ta'limga jarayonidagi rolini ochib beradi. Pedagogik liderlik nima ekanligini va uning ta'limga jarayoniga qanday ta'sir qilishini ochib beradi. O'qituvchi pedagoglarning o'z sinflarida va mакtabda hamkasblari orasida lider sifatida o'ynaydigan roli haqida so'z boradi. Samarali ta'limga jarayoni uchun o'qituvchilarining mas'uliyatlari, vazifalari va funksiyalari o'qituvchining ta'limga jarayonidagi muhim roli hisoblanadi. Maqolada o'qituvchining liderlik qobiliyatlarini, muammoni hal qilish, boshqaruva va motivatsiya qilish qobiliyatini va yana o'qituvchi samarali ta'limga jarayonini tashkil qilishda qanday strategiyalardan foydalanishi, innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinni foydalanishi to'g'risida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'z: Pedagog, liderlik, strategiya, innovatsiya, texnologiya, ta'limga jarayoni, qobiliyat, samarali ta'limga.

Аннотация: В данной статье раскрывается понятие педагогического лидерства, роль учителя в эффективном образовательном процессе. Раскрывается, что такое педагогическое лидерство и как оно влияет на образовательный процесс. В нем говорится о роли, которую учителя-педагоги играют как лидеры в своих классах и среди своих коллег в школе. Ответственность, обязанности и функции учителя для эффективного образовательного процесса – важная роль учителя в образовательном процессе. В статье содержатся мысли и мнения о лидерских качествах учителя, его способности решать проблемы, управленческих и мотивационных способностях, а также о том, какие стратегии использует учитель при организации эффективного образовательного процесса, правильном и целесообразном использовании инновационных технологий.

Ключевые слова: Педагог, лидерство, стратегия, инновации, технологии, образовательный процесс, способности, эффективное образование.

Abstract: This article reveals the concept of pedagogical leadership, the role of the teacher in the effective educational process. It reveals what pedagogical leadership is and how it affects the educational process. It talks about the role that teacher pedagogues play as leaders in their classrooms and among their colleagues at school.

Responsibilities, duties and functions of teachers for an effective educational process are the important role of the teacher in the educational process. The article contains thoughts and opinions about the teacher's leadership skills, problem-solving, management and motivational abilities, as well as what strategies the teacher uses in organizing an effective educational process, and the correct and appropriate use of innovative technologies.

Key words: Pedagogue, leadership, strategy, innovation, technology, educational process, ability, effective education.

Kirish. Bugungi kunda ta'lismizning tizimini yangilash va rivojlantirish, zamonaviy talablar va ehtiyojlarga javob beradigan ta'lismizning muhitini yaratish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchilarimizning roli beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'qituvchilarning professional salohiyatini oshirish va ularning pedagogik liderligini qo'llab – quvvatlash, mamlakatimiz kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratish yo'lidagi muhim qadamdir".

Ma'lumki, har qanday tashkilot va jamoalarda barcha jamoa a'zolarini jamlay oladigon o'z ortidan ergashtirib ularni birgalikda harakat qilishlarini ta'minlay oladigan shaxs bo'ladi. Bugungi kunda biz bunday insonlarni liderlar deb ataymiz.

Lider so'zi inglizcha "Leader" – so'zidan olingan bo'lib, yetakchi, boshlovchi degan ma'nolarni anglatadi. Yetakchi liderning asosiy xususiyatlari quyidagilar.

- Mas'uliyatli va qiyin qarorlarni qabul qilish qobiliyati, jamoa a'zolari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish istagi.
- Shaxsiy manfaatlari emas balki, jamoa a'zolarining manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi.
- Jamoa va tashkilot a'zolarini ixtiyoriy asosda boshqarish qobiliyati.
- Xarizma va tabiiy ta'sir kuchiga ega bo'lish.
- Jamoa tomonidan liderga bo'lgan ishonch va kuchli hokimiyat mavjudligi.
- Xatolarni tan olish qobiliyati va mag'lubiyat uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, bunda shaxsiy xatolarni qidirish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lismizning rivojlantirish va o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini oshirish borasida bir qancha muhim tashabbuslar bilan chiqdi. Prezidentimiz o'z nutqlarida ta'lismizning vazifalari va o'qituvchilar oldida turgan mas'uliyat haqida ko'p marotaba to'xtalgan. Prezidentimizning fikricha, "Ta'lismizning tizimi – davlatimiz va xalqimizning kelajagi uchun tayanch hisoblanadi. O'qituvchilar esa bu tizimning muhim bo'g'inidir, ularga yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlar, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Yuqoridagi fikrlar asosida pedagogik liderlikning ahamiyati va o'qituvchilarning samarali ta'lim jarayonidagi roli keng ko'lama o'rganilishi zarur. Pedagogik liderlik bu – o'qituvchi o'z faoliyatida ilhomlantiruvchi, yo'l- yo'riq ko'rsatuvchi va motivatsiya beruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishidir. Bu liderlik o'qituvchilarning o'z fanlariga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, shuningdek, o'quvchilarning o'qishga bo'lagn intilishini kuchaytiradi.

Shuningdek, Prezidentimiz 2022-yil 14-martdagি nutqida ta'lim tizimida amalgalashirilayotgan islohatlar haqida to'xtalib o'tdi. U ta'lim sohasidagi islohatlarning asosiy maqsadi sifatida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlovchi, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni belgilaydi. Prezidentimizning bu fikrlar o'qituvchilarga katta ilhom bag'ishlaydi va ularda o'z faoliyatiga yangicha yondashish imkoniyatlarini ochib beradi.

Ushbu maqola orqali pedagogik liderlikning asosiy jihatlari, o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi vazifalari va ularning yosh avlodga ta'siri haqida batafsil ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O'qituvchining liderlik qobiliyatları va ularga bog'liq omillar: Xusanboy Rasulov "Ta'lim jarayonida pedagogik liderlikning roli". Pedagogika va psixologiya jurnali 3(2), 15-20. Ushbu maqolada o'qituvchining liderlik qobiliyatları va ularni rivojlantirish to'risida fikr yuritilgan. Karimova G. "O'qituvchi liderligi: Nazariy va amaliy asoslari". Bu kitob o'qituvchilarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy maslahatlar beradi.

Pedagogik liderlikning ta'lim jarayoniga ta'siri: Mamadaliyeva Z. "O'zbekiston mакtablarida pedagogik liderlik va ta'lim sifati". Ta'lim sifati va rivojlanish, 4(1), 25-30. Tadqiqotda pedagogik liderlikning ta'lim jarayoniga va o'quvchilarning maktabga bo'lgan qiziqishiga ta'siri o'rganilgan. Murodov Sh. "Ta'limda liderlikning muvvaffaqiyatga ta'siri". Toshkent Akadem nashr. Ushbu kitobda muvaffaqiyatli maktab liderligi va uning ta'lim sifati va natijalariga ta'siri haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Ta'lim sifatini oshirishda liderlikning roli: Usmonov A. "Ta'lim va liderlik: Innovatsion yondashuvlar". Tadqiqotda liderlik turlarining o'quvchilarning natijalariga ta'siri tahlil qilingan. Bahtiyorob M. "Ta'limda liderlik va trasformatcion yondashuvlar". Bu maqolada ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va liderlikning bu o'zgarishlarga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Muhokama. Pedagogik liderlik va o'qituvchining samarali ta'lim jarayonidagi roli zamonaviy ta'lim tizimining muhim aspektlaridan biridir. O'qituvchilar faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi va yosh avlodning yo'l ko'rsatuvchisi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, pedagogik liderlik ta'lim jarayonining sifatini oshirish va o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun

muhim ahamiyatga ega. Samarali pedagogik liderlar ta'lim muhitini yaratishda innovatsion yondashuvlardan foydalanadilar. Ular zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullarni o'quv jarayonida qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilaydilar.

O'qituvchilar o'quvchilarni ilhomlantirish va ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun turli xil usullardan foydalanadilar. Shaxsiy yondashuv, individual e'tibor va o'quvchilarning ehtiyojini hisobga olish orqali ularni muvaffaqiyatga yo'naltiradilar. O'qituvchilarning ijobiy munosabatlar va o'ziga bo'lgan ishonchi o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi. Pedagog liderlar o'quvchilarni hamda jamoaviy ishlarni rag'batlantiradilar. Hozirgi kunda o'qituvchilar ko'p malaka oshirishlari va bir- birilari bilan o'zaro ma'lumot almashishlariva o'quvchilar bilan yaqin hamkorlikda ishlashlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Jamoaviy loyiha va tadbirlar o'quvchilarni birlashtiradi, ularni bir- biriga yordam berish va hamkorlikqilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Samarali ta'lim berish uchun o'qituvchilar ta'lim jarayonida aniq maqsadlar qo'yish va ularni amalga oshirish uchun rejalar tuzish va shu bo'yicha darslarni tashkil qilish muhim deb hisoblaydilar. Har bir dars rivojlantirilgan va o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilgan bo'lishi lozim. O'qituvchilar o'quvchilarning bilim darajasini baholash va ularning muvaffaqiyatini kuzatish orqali ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtiradilar.

Natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik liderlik ta'lim jarayonida kreativ va innovatsion yechimlarning joriy etilishiga yordam beradi. O'qituvchilar yangi usullarni sinab ko'rish orqali ta'lim samaradorligini oshiradilar. Lider qobiliyatiga ega o'qituvchilar ko'pincha zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarni ta'lim jaraniga jalb qilishda muvaffaqiyat qozonadilar. Ilhomlantiruvchi o'qituvchilar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivvojlantirishda katta rol o'ynaydi. Natijalar shuni ko'satdiki, ilhomlantiruvchi yondashuvlar o'quvchilarning yaratuvchanligini oshiradi va ularning yangi g'yalar yaratish qobiliyatini kuchaytiradi. Motivatsiya usullari o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatini oshoiradi va ularni yanada faol o'rganishga undaydi.

Rejalashtirilgan ta'lim jarayonlari o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali boshqarishga yordsm beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsaddiki, rejalahtirish va aniq maqsadlar qo'yish o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshiradi. Baholash va kuzatish natijalari o'qituvchilarga ta'lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi va o'quvchilarning bilim darajasini doimiy ravishda oshirib borishga yordam beradi.

Xulosa. Pedagogik liderlik ta'lim jarayonida o'qituvchilarning roli katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. O'qituvchilarning liderlik qobiliyatları nafaqat o'quvchilarni akademik jihatdan rivojlantirishda, balki ularning motivatsiya va ilhom olishida ham muhim o'rin tutadi. Yana shuni ta'kidlab aytishimiz lozimki, innovatsin

yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lism jarayonini yanada smarali qiladi.

Shaxsiy yondashuv individual e'tibor o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni darslarda faol ishtirok etishiga yordam beradi.

O'qituvchining pedagogik liderlik qobiliyatlarni ta'lism jarayonining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. Bu qobiliyatlar o'qituvchilarga: ta'lism mazmunini yanada qiziqarli va moslashuvchan tarzda yetkazish, o'quvchilarni mustaqil fikrplash va muammolarni hal qilishga yo'naltirish, ta'lism jarayonida ishtirok etuvchi barcha tomonlar bilan samarali muloqot qilish, innovatsion va ijodiy ta'lism usullarini joriy etish imkoniyatini beradi.

Pedagog liderlik o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ta'lism sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Ularning samarali liderligi orqali o'quvchilar motivatsiyasi, ta'lism jarayonidagi ishtirtoki va yakuniy natijalari sezilarli darajada oshadi. Umuman olganda, pedagogik liderlik o'qituvchining roli va vazifalari kengaytiradi va ta'lism tizimining samaradorligi oshirishga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sh.M.Mirziyoyev."Yangi O'zbekistonda erkin va farovon hayot barpo etamiz. 2021 Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati.
2. Xusanboy Rasulov " Ta'lism jarayonida pedagogik liderlikning roli" Pedagogika va psixologiya jurnali 3 (2), 15-20
3. Karimova. G " O'qituvchi liderligi: nazariy va amaliy asoslari " Toshkent
4. Mamadaliyeva. Z O'zbekiston maktablarida pedagogik liderlik va ta'lism sifati".Ta'lism sifati va rivojlanish 4(1),25-30
5. Murodov.Sh "Ta'limda liderlikning muvaffaqiyatga ta'siri" Toshkent akadem nashr
6. Usmonov.A "Ta'lism va liderlik :Innovatsion yondashuvlar "
7. Hayitov O.E " Boshqaruv psixologiyasi " Toshkent istiqlol nashriyoti 2021.
8. Internet manbalari.